

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI KO'TARISH OMILLARI

Muratov Jamol Komiljonovich

*Toshkent viloyati Zangiota tumani oholi bandligini taminlash va kambag'allikni qisqartirish bo'limi hokim yordamchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lismaktablarida ta'lismifatini ko'tarish omillari, pedagogik jarayonni boshqarish va ota ona yig'ilishini samarali tashkil etish haqida qisqacha so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *O'rta ta'lismaktab, pedagog, yaxshilash, o'quvchi, faoliyat, qobiliyat, ijodkorlik*

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi —Ta'lism to'g'risida gi qonunlarni amalga oshirish, talim tizimi oily o'quv yurti hamda maktab isloxitida belgilangan ulkan vazifalarni bajarish ta'litm tarbiya sifatini yaxshilash pedagogik jarayonni boshqarish va idora qilish, o'quvchilar jamoasi faoliyatini yo'lga qoyish va rahbarlik qilish shu kundagi tarbiya texnologiyasini amalga oshirish ota-onalar va jamoatchilikni tarbiya ishlariga jalgan etish va ular bilan yaqin hamkorlik o'rnata olish o'qituvchi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardir. Bu vazifalarni muvoffaqiyatli hal etish o'qituvchi kadrlar tayyorlashning g'oyaviy, siyosiy, professional darajasini yuqori ko'tarishni talab qiladi. Talim tizimi sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzlusiz ta'litm tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi.

Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi. Ta'lism to'g'risidagi qonun umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari orqali sifatli ta'lism olish, shuningdek ta'lism va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzlusiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi. Ta'lism xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lism olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rish kafolatlanadi. Ta'lism olish jarayonida shaxs davlat ta'lism standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart. Shaxs ta'lism xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lism, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi va tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

Uzlusiz ta'litm tiziminin faoliyat olib borishi davlat ta'lism standartlar asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'litm turlarini o'z ichiga oladi.

- Maktabgacha ta'lism.
- Umumiy o'rta ta'lism.
- O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.
- Oliy ta'lism.
- Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lism.
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi. Ta'lim inson hayotining ajralmas bir bo`lagi va unga o`zining jamiyat hayotida muhim o`rin tutishini anglab yetishida muhim omil sifatida namoyon bo`lishini anglatadi. Ta'lim olish insonning asosiy huquqi sifatida inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, insonning barcha huquq va asosiy erkinliklarini hurmat qilishni mustahkamlash, shuningdek, barcha xalqlar o`rtasida o`zaro hamjihatlik, bag`rikenglik va do'stlikni mustahkamlashga yordam berishga qaratilgandir.

***Maktablarda ota ona yig'ilishini samarali tashkil etish***

O'qituvchi - insonning bir umrlik yo'lini yorituvchi shaxs. U hayot mash'alini qo'lida tutib turgan, muvaffaqiyatlar gulshani sari eltuvchi ajib bir nur. O'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yuvchi, o'quvchilarning tarbiyachisi va murabbiysiga sinf rahbar deyiladi. Shu nuqtai nazardan, har bir o'qituvchi sinf rahbar hisoblanadi.

Sinf rahbarning asosiy vazifasi-o'quvchilarga tarbiya berish va ularni do'stona jamaoa qilib jipslashtirishdan iborat. Bundan tashqar o'z sinfdagi o'quv ishlarni olib borish, o'quvchilarini har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash, o'quvchilarni o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va buni bartaraf etish, o'quvchilarning oilasi, bilan tanishish ham uning zimmasiga yuklanadi.

Bundan, tashqari nizomga ko'ra sinf rahbarning faoliyat yo'nalishidagi ish turlarga bo'linadi. Bular:

Sinf rahbar vazifalari: 1. Sinf rahbari bolalarni yaqin do'sti va mehribon ustozи bo'lishi. 2. O'quvchilarni tarbiyalangan darajasini bilish. 3. O'quvchilarni milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash.

Ota-onalar bilan hamkorlik: 1. Bolalar oilasi va ota-onalar bilan tanishish, hamkorlik qilish. 2. Sinf ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash. 3. Ta'lim-tarbiyani uzviy tashkil qilishda fan o'qituvchilariga yordam berish.

O'quvchilarni bo'sh vaqtini tashkil qilish: 1. O'quvchilarni iste'dod va qobilyatlarini yuzaga chiqarishga yordam berish. 2. Madaniy dam olish uchun shart-sharoit yaratish. 3. Turli oqimlardan saqlash.

Hozirgi kunda ko'pchilik sinf rahbar-o'qituvchilar uchun muammo bo'lib kelayotgan masala - bu o'quvchilar ota-onalarini yig'ilishga jalb qilish, ba'zi hollarda ularning o'rniga qarindoshlarning ishtirot etishlaridir. Ayniqsa, yig'ilishda ota-onaning o'rniga boshqa shaxslarning ishtirot etishi nafaqat o'qituvchining, balki o'quvchining ham dilini xira qiladi. Bunday holatlar yuz bermasligi uchun o'qituvchi pedagogik mahoratga ega va otaonalar bilan uzviy aloqada bo'lishi zarur. Bundan tashqari, ota-onalarning yig'ilishda faol ishtirot etishini har bir o'qituvchining o'zi ta'minlaydi. Zarurat tug'ilsa, har bir yig'ilish uchun "Taklifnomalar" ishlab chiqishi va yig'ilish sanasidan 3-4 kun avval o'quvchilar tomonidan berib yuborishlari ham maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. <https://www.xabar.uz/uz/talim/maqola-yuzasidan-mulohazalar>
2. rasulov-akbar-nomozovich-2.pdf

5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON

3. umumiy-o-rta-ta-lim-maktablarida-tarbiyaviy-ishlarning-shakllari-va-usullari/viewer
4. <https://fayllar.org/download/talim-sifatini-kotarishda-boshqaruv-tizimini-takomillashtirish.doc>
5. <https://www.uzedu.uz/oz/angi-2021-2022-ukuv-jilida-maktablarda-darslar-gibrid-saklda-davom-etisiga-tajergarlik-kurilmokda>